



## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TA'LIM TAMOYILLARINI O'RNI

*Yaqubov A. M., Sapayev R.R.*

*Urganch Davlat pedagogika instituti Aniq va amaliy fanlar fakulteti  
Jismoniy madaniyat kafedراسi o'qituvchilari*

**Tayanch so'zlar:** jismoniy tarbiya, ta'lim, ta'lim tamoillari, o'quv mashg'ulotlari, pedagogik jarayon.

**Ключевые слова:** физкультура, воспитание, принципы воспитания, учебная деятельность, педагогический процесс.

**Key words:** physical education, education, principles of education, educational activities, pedagogical process.

Respublikada ta'lim-tarbiya tizimini, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirish davlat taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari sifatida takomillashtirib borishiga zaruriy sharoitlar yaratilmoqda.

Farzandni bolalikdan sog'lom kilib o'stirish, ularni kasb-hunarga yo'llashda uzluksiz, ya'ni oila, bog'chalar, umumta'lim maktablar, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya beriladi.

Bunday ijtimoiy pedagogik jarayonlarda jismoniy tarbiya ta'limi fani va umuman olganda jismoniy madaniyat tarbiyasi o'ziga xos xususiyatlarni o'zida mukammal pavishda mujassamlashtiradi.

Jismoniy madaniyat xarakati va sport tadbirlarining amaliyotida jismoniy tarbiya ta'limining umummadaniyat tarbiya jarayonidagi aloqalari va tarbiyaviy axamiyatlarini quyidagi yunalishlarda ko'rish mumkin: axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, mexnat tarbiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash va hakazo.

Eng avvalo ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya ta'limining tarbiya sohasidagi boshqa fanlar, ijtimoiy-madaniy muhit va boshqa faoliyatlar bilan o'zviy bog'likligini ilmiy nazariy jihatdan tajriba-sinovlar asosida to'la isbotlab berilgan. Bu yo'lda akademik S.R.Rajabov, professorlar: S.R.Raximov, R.S.Salomov, K.T.Rafiev, J.Toshpulatov, dotsentlar: T.X.Xoldarov, R.K.Kudratov, R.Abdumalikov, K.T.Raximjanova, Z.G.Gopparov,



A. Abdullaev, X.A. Meliev, A.T. Sodikov va boshqa ko'pgina mutaxassis olimlar samarali mehnat qilishdi. Ularning tadqiqotlari asosida pedagogika, psixologiya, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslublari kabi fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, ishlab chiqilib, ular kadrlar tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda xizmat qilmoqda.

Jismoniy tarbiya ta'limini tashkil qilishda ta'lim tamoillarining o'rni katta. Ta'lim tamoyillarining ayrimlariga misollar keltirib o'tamiz. Faollik va onglilik tamoyili ta'lim - tarbiyaning muhim qonuniyati sanaladi jarayonning sifati ko'p jihatdan bevosita shu tamoyili talablariga to'g'ri amal qilish bilan bog'liq. Mazkur tamoyil o'quvchi - talabalarda o'quv mashg'ulotlariga nisbatan ongli va sog'lom munosabatni, bilish faolligini oshirish ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. E'tirof etilayotgan tamoyil o'quv faoliyatiga ongli munosabat, bajarayotgan ishi va mashqlarining tub mohiyatini, amaliy ahamiyatini, ta'lim oluvchining salomatligi uchun muhimligini anglab etish jismoniy madaniyat fanini o'qitishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmalilik tamoyili talabalar jismoniy tarbiyasi jarayonida ulkan ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmalilik tamoyili talabalarni o'qitishda turli ko'rgazma materiallarni qo'llash asosida ularda o'zlashtirilayotgan bilim va harakat texnikasi xususida to'g'ri tasavvur hosil qilishga yaqindan yordam beradi. Mazkur tamoyil bevosita o'zlashtirilayotgan harakatlar va mashqlar to'g'risidagi tasavvurlarni ko'rsatma materiallar yordamida amalda ko'rsatib berish, namoyish qilish orqali shakllantirish vazifasini o'taydi.

Tizimlilik tamoyili jismoniy madaniyat darslarida qo'llanadigan usul va vositalarini qo'llash hamda o'quv - yig'in amaliy mashg'ulotlarini tizimli tashkil qilishda muayyan izchillik va uzluksizlikka rioya qilishni tartibga soladi. Bu tamoyilning mohiyati jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida olinadigan jismoniy yuklama bilan dam olishni tartibga solish, o'zaro muvofiqlashtirishda, talabalarni ortiqcha zo'riqishlardan himoya qilishda namoyon bo'ladi. Rivojlantiruvchi tamoyil mohiyati talabalarga berilayotgan jismoniy yuklamalar hamda nisbatan qiyin mashq va topshiriqlarni muayyan izchillikda amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Rivojlantiruvchi tamoyil jismoniy madaniyat va sportga doir talablarni soddadan murakkabga qarab intinsiv rivojlantirib borishni talab qiladi. Jismoniy mashqlar murakkabligini muntazam oshirib borish, ular tomonidan sarflanadigan kuch va harakat davomiyligining intinsiv tarzda oshirib borilishi talabalarni umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasining ortishiga olib keladi. SHu maqsadda jismoniy madaniyatda ta'lim oluvchilar qo'yiladigan talablarni kuchaytirish, jismoniy mashqlarni murakkablashtirish,



ular bajaradigan jismoniy yuklamalar hajmi va intinsivligini muntazam oshirib borish zarur.

Ishonchlilik tamoyili: jismoniy madaniyatning eng muhim vazifalaridan biri talabalarning amaliy faoliyatlarida asqotadigan mustahkam, ishonchli hamda asosli bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari hisoblanadi. E'tirof etilganidek, jismoniy madaniyat fanini o'qitishda mustahkamlik tamoyili talabalarga bo'lg'usi pedagoglik faoliyati uchun dastur bo'lib xizmat qiladigan, ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni taqozo etadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkam egallanishi inson hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, yuqori ish koeffitsentiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik jarayonda ishonchlilik tamoyilini samarali amalga oshirish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

YAngi o'quv materialini o'zlashtirishga kirishdan oldin unga nisbatan talabalarda muayyan qiziqish va ijobiy munosabat shakllantirish maqsadga muvofiq;

mashg'ulotlar jarayonida yangi o'zlashtiriladigan harakat va bilimlarni o'rganishga kirishishda shoshma - shosharlikka yo'l qo'yish egallanayotgan BKM sifati pasayishiga olib kelishini yodda tutish;

mashg'ulotlar paytida talabalarda kuchli charchoq va toliqishni keltirib chiqaradigan nihoyatda og'ir mashq va topshiriqlardan imkon darajasida foydalanmaslikka erishish;

yangi materiallarni o'zlashtirishda oldin o'tilgan mavzular bilan o'zaro bog'lash hamda eski va yangi materiallarni turli variantlar yordamida takrorlab ko'rish;

bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun ko'rgazmali, texnik vositalar, tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar, diskussiyalar, dialog, muammoli - izlanish metodlaridan samarali foydalanish;

talabalarda puxta va mustahkam bilim doirasini shakllantirish uchun ularni ta'lim jarayonida qo'lga kiritayotgan bilim va yutuqlarini mustaqil nazorat qilish hamda obektiv baholashga o'rgatish lozim;

talabalar bilimini obektiv baholashda ulardagi ijodkorlik hamda mustaqillikning har qanday shakldagi ko'rinishlarini rag'batlantirishni bilish.

Ilmiylik tamoyillari ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. E'tirof etilayotgan tamoyilning asl mohiyati ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik tajriba, psixologiya va pedagogika fanlarining so'nggi hamda ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanishida namoyon bo'ladi. Ilmiylik tamoyili talabalarga ta'lim jarayonida davr sinovidan o'tgan, fan tomonidan



qatiy belgilangan bilimlar majmuasini berishi bilan ajralib turadi. Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi talabalarining ilmiy bilimlarni o'zlashtirishiga, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, o'quv predmeti mantiqi, ilmiy yutuqlar asosini ochishga qaratiladi. Ilmiylik tamoyilining didaktik talablari oliy ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni ilmiy va dunyoviy yo'nalishga ega bo'lishini taqozo qiladi.

Ilmiylik tamoyili talablarini yuzaga chiqarish pedagogdan quyidagilarni talab qiladi:

Har bir mavzuni, uning mazmuni va o'quv materialini ilmiy holatini chuqur asosli ochib berishni;

o'zlashtirilayotgan materialga ilmiylik tusi(yo'nalishi)ni bera olish, talabalarda dialektik tafakkur elementlarini shakllantirish, ularning yangi o'rganilayotgan atama va tushunchalarning mavjud ilmiy qonuniyatlar va nazariyalar bilan o'zaro aloqadorligini anglab etishlariga erishishni;

o'quv materialini mazmun - mohiyatini pedagogika fani nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga tayangan holda chuqur ochib berish;

o'quvchi - talabalarni etuk olimlar hayoti va ijodiy faoliyati, fan taraqqiyotiga qo'shgan ulushlari, ilmiy g'oyalari, ta'lim-tarbiyaga doir konsepsiyalari va o'ziga xos yondashuvlari bilan yaqindan tanishtirish;

iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni ilmiy - tadqiqot faoliyatiga jalb qilish, ilmiy faoliyatda erishgan yutuq va ko'rsatkichlarini har tomonlama qo'llab - quvvatlash, rag'batlantirish;

ilmiy axborotlarni muntazam kuzatishga o'rgatish, ta'lim jarayoniga yangi va ilg'or pedagogik axborot texnologiyalarni joriy etish va yangilarni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya darslarida yuqorida ifodalangan didaktik tamoyillar o'zaro bir - biri bilan chambarchas va uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. 2000 y. Toshkent.
2. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. 2001y. Toshkent.
3. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. 2004 y. Toshkent.
4. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. 2002 y. Toshkent.
5. SHaripov T.YU., Usmonxodjaev T.S. Jismoniy tarbiya. Dars ishlanmalari va harakatli o'yinlar. 2005 y.

#### PEZIOME

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida talabalarni o'qitishda ta'lim tamoyilidan foydalanish muammosi tahlil qilingan. Jismoniy tarbiya ta'limini tashkil qilishda ta'lim tamoyillarining o'rni katta.



Pedagogik jarayonda ta'lim tamoyilini samarali amalga oshirish uchun ayrim qoidalarga amal qilish talab etiladi. Maqolada shu qoidalar va tamoillarni jismoniy tarbiya jarayoniga tadbiri to'g'risida so'z boradi.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье анализируется проблема использования образовательного принципа в обучении учащихся на уроках физической культуры. Роль воспитательных принципов в организации физкультурного образования велика. Для эффективной реализации воспитательного принципа в педагогическом процессе требуется соблюдение определенных правил. В статье речь пойдет о применении тех же правил и принципов к процессу физического воспитания.

**SUMMARY**

This article analyzes the problem of using the principle of education when teaching students in physical education classes. The role of educational principles in the organization of physical education education is great. In order to effectively implement the principle of education in the pedagogical process, it is required to adhere to certain rules. The article will talk about the application of the same rules and principles in the process of physical education.